



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

SINF MASHG‘ULOTLARI VA ULARNI INTERAKTIV TARZDA TASHKIL ETISHNING LINGVISTIK USTUVORLIGI

Ashurova Nargizaxon Valijon qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinf mashg‘ulotlarini olib borish va ularni interaktiv usullar yordamida samarali tashkil etishning pedagogik asoslari yoritiladi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, ular o‘rtasida o‘qishga bo‘lgan raqobatni kuchaytirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, guruhlarda ishlashda keng ko‘lamda “aqliy hujum”, “ro‘lli o‘yin”, onlayn interaktiv platformalardan foydalanish kabi metodlarning mazmuni va amaliy qo‘llanish mexanizmlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: interaktiv metodlar, sinf mashg‘ulotlari, faol ta‘lim, guruhlarda ishlash, aqliy hujum, rolli o‘yinlar, hamkorlikda o‘qitish, innovatsion yondashuv.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРИОРИТЕТЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ В ИНТЕРАКТИВНОЙ ФОРМЕ

Ашурова Наргизахон Валиджон кизи
Андижанский филиал Кокандского университета, доцент (PhD)

Аннотация

В статье рассматриваются педагогические основы проведения урочной деятельности и её эффективная организация с использованием интерактивных методов. Интерактивные методы играют важную роль в повышении активности учащихся на уроке, усилении их учебной конкуренции, развитии самостоятельности мышления и творческих способностей. Также рассматриваются содержание и механизмы практического применения таких методов, как «мозговой штурм», «ролевая игра», использование онлайн-интерактивных платформ в групповой работе.

Ключевые слова: интерактивные методы, занятия в классе, активное обучение, групповая работа, мозговой штурм, ролевые игры, совместное обучение, инновационный подход.

LINGUISTIC PRIORITIES OF ORGANIZING CLASSROOM ACTIVITIES IN AN INTERACTIVE FORMAT

Ashurova Nargizaxon Valijon qizi
Andijan Branch of Kokand University, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article discusses the pedagogical foundations of conducting classroom activities and their effective organization using interactive methods. Interactive methods play an important role in increasing student activity in the lesson, increasing competition for learning among them, and developing independent thinking and creativity. It also discusses the content and practical application mechanisms of such methods as “brainstorming”, “role-playing”, and the use of online interactive platforms in group work.

Keywords: interactive methods, classroom activities, active learning, group work, brainstorming, role-playing games, collaborative learning, innovative approach.

Mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish hozirgi ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunchaki o‘quvchilarga tayyor bilim berishning o‘zi yetarli emas. Shu bois interaktiv usullardan foydalangan holda ta‘lim faoliyatini rejalashtirish o‘quv samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Interaktiv ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol, ikki tomonlama muloqotga asoslanib, har bir o‘quvchining ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishini ta‘minlaydi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, interaktiv o‘qitish strategiyalari o‘quvchilarning o‘quv materiali bilan aloqasini kuchaytiradi, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda chuqur o‘zlashtirishga sezilarli hissa qo‘shadi [3; 6].

Mazkur maqolaning maqsadi interaktiv sinf faoliyatini rejalashtirishning afzalliklari, strategiyalari va samarali jarayonlarini o‘rganishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O'zbek pedagogikasi va tilshunosligida B. Ziyomuhamedov, N. Azizxo'jayeva, R. Mavlonova kabi olimlar zamonaviy ta'lim tizimi o'qitishning an'anaviy shakllaridan konstruktiv yondashuvga asoslangan faol metodlarga o'tishni talab qilishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular ta'lim jarayonida o'quvchini markazga qo'yish va uni bilim egallash jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish masalalarini tadqiq etganlar. Xorijiy olimlardan H. Douglas Brown, David W. Johnson, Robert Slavin, Lev Vygotsky hamda Jean Piaget interaktiv metodlarning ta'lim jarayonida o'quvchilarning muloqotga kirishishi, izlanishi, mustaqil xulosa chiqarishi, fikr almashishi va hamkorlikda muammolarni hal qilishi uchun zarurligini alohida ta'kidlaydilar.

Sinf mashg'ulotlarining zamonaviy talablari o'quvchilarning bilimni tayyor holatda qabul qilishini emas, balki uni mustaqil izlab topishi, tahlil va sintez qilishi, xulosa chiqarishi hamda amaliy faoliyatda qo'llay olishini talab qiladi. Bugungi ta'lim falsafasi o'quvchini jarayonning markaziga qo'yadi. Shu sababli interaktiv metodlar dars samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Interaktiv yondashuv o'quvchini faol fikrlovchi, savol beruvchi va izlanishga moyil shaxs sifatida shakllantiradi. Bunda o'qituvchi esa yo'naltiruvchi, tashkilotchi va motivator rolini bajaradi.

O'zbek pedagogikasi va tilshunosligida B. Ziyomuhamedov interaktiv metodlarni o'quvchilar tafakkurini rivojlantiruvchi, muloqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi hamda ta'lim mazmunini chuqurlashtiruvchi texnologiya sifatida tavsiflaydi [1;12]. N. Azizxo'jayeva esa interaktiv yondashuvda o'qituvchining roli bilim manbai emas, balki ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi rahbar sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [9]. Aniqki, interaktiv ta'lim o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikka asoslanib, o'quvchi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu holatni R. Mavlonova interaktiv metodlar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishi va mustaqilligini oshirishini ilmiy asoslash orqali izohlaydi [4]. Shuningdek, Shodmonov interaktiv metodlarning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi muhim ahamiyatini dalillaydi.

Xorijiy adabiyotlarda H. Douglas Brown interaktiv ta'limning kommunikativ didaktikadagi ustuvor o'rnini ko'rsatadi. Robert Slavin tadqiqotlari esa interaktiv hamkorlik o'quvchilarning motivatsiyasi va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishini tasdiqlaydi [3;8]. Lev Vygotskyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi interaktiv ta'limning psixologik asosini tashkil etadi. Uning fikricha, o'quvchi tengdoshlari bilan muloqot orqali yangi bilimlarni tezroq o'zlashtiradi [13].

2020–2023-yillar davomida Yevropa ta'lim tizimlarida interaktiv texnologiyalarning STEAM education, CLIL hamda gamifikatsiya kabi shakllari keng qo'llanilgani qayd etilgan [10;16]. Interaktiv metodlarning eng ko'p qo'llanadigan turlari sifatida guruhlarda ishlash, "Aqliy hujum", rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar metodi hamda onlayn interaktiv platformalardan foydalanish kabi yondashuvlar amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi.

1. **Gruhlarda ishlash.** Guruhli ishlarda o'quvchilar vazifalarni birgalikda bajaradi, fikr almashadi va jamoaviy qarorga keladi. Bu metod o'quvchilarda liderlik, muloqot va muammoni hamkorlikda hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Har bir o'quvchi o'z tajribasini namoyon etish va fikrini dalillar asosida himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. **"Aqliy hujum" texnikasi.** Mazkur metod ijodkorlikni rag'batlantiruvchi eng samarali usullardan biridir. O'quvchilar erkin ravishda o'z g'oyalarni bildiradi, takliflar tanqid qilinmaydi. Bu esa psixologik erkinlik va ijodiy fikrlash uchun qulay muhit yaratadi. Natijada o'quvchilar mavzuga chuqurroq yondashishni boshlaydilar [5; 9].

3. **Rolli o'yinlar.** Rolli o'yinlar orqali real yoki modellashtirilgan vaziyatlarda bilimlarni amaliy qo'llash imkoniyati yaratiladi. Masalan, tarix fanida tarixiy shaxslarni gavdalantirish, biologiyada ekolog rovida chiqish yoki adabiyot darslarida qahramonlar munozarasini sahnalashtirish o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi. Ushbu metod nutq madaniyati, mantiqiy fikrlash va o'z pozitsiyasini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. **Muammoli vaziyatlar metodi.** Mazkur metod o'quvchini tayyor javobni qabul qilishga emas, balki muammo ustida mustaqil fikrlashga, sabab–oqibat bog'lanishlarini aniqlashga va ilmiy asoslangan xulosa chiqarishga undaydi. Bu esa tanqidiy fikrlash, analitik tafakkur va mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantiradi [2; 34].

Tahlil va natijalar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, interaktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda eslab qolish, fikrni aniq ifodalash, savol berish, muzokara olib borish va bahs-munozaralarda qatnashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchi o'z bilimni asoslaydi, dalillaydi va mustaqil xulosa chiqaradi. Natijada u nafaqat mavzuni biladi, balki tahlil qiladi va yangicha yechimlar taklif

eta oladi.

Demak, interaktiv metodlar o'quv jarayonining mazmunini boyitadi, darsni jonlantiradi hamda o'quvchini bilim egallashning faol subyektiga aylantiradi. Ushbu yondashuv nafaqat sifatli ta'limni ta'minlaydi, balki o'quvchilarda kelajak faoliyatida zarur bo'ladigan hayotiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Dars jarayonida mavzu faqat nazariy shaklda emas, balki tajriba, amaliy mashg'ulotlar, modellash, keys-stadi va muhokama orqali o'quvchi ongida "tirik bilim" sifatida shakllanadi. Bu esa "bilaman" emas, balki "qo'llay olaman" tamoyilini yuzaga keltiradi. Chunki zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi bilim miqdori emas, balki uning amaliy qiymati va qo'llash imkoniyatidir.

Xulosa. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilar fikrlaridan anglashiladiki, sinf mashg'ulotlarini interaktiv tarzda tashkil etish zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv metodlar o'quvchilarni faollikka jalb qiladi, ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda dars mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Guruhlarda ishlash, "Aqliy hujum", rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va onlayn interaktiv platformalardan foydalanish kabi metodlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, dinamik va samarali qiladi. Shuningdek, interaktiv yondashuvlar darsni rejalashtirish, texnik vositalardan foydalanish va baholash tizimini samarali tashkil etishni talab qiladi. Har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish, dars maqsadini aniq belgilash hamda faol ishtirokni rag'batlantirish interaktiv mashg'ulotlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Natijada interaktiv metodlarni sinf mashg'ulotlarida qo'llash nafaqat o'quvchilarning bilimini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli o'qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni muntazam qo'llashi va darslarni interaktiv tarzda tashkil etishi ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ziyomuhamedov B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2018. – 12 b.
2. Mavlonova R. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017. – 34 b.
3. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York, 2015. – P. 8.
4. Mavlonova R. Zamonaviy dars modeli. – Toshkent, 2019.
5. Johnson D., Johnson R. Cooperative Learning. – Boston, 2018. – P. 9.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. Shodmonov Sh. Pedagogik mahorat va texnologiya. – Toshkent, 2018.
8. Slavin R. Cooperative Learning Theory. – New York, 2014.
9. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2016.
10. European Competence Framework. – European Union, 2020. – P. 16.
11. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва, 1934.
12. Piaget J. Child Learning Theory. – Geneva, 1976.